



DAVLATLATNING FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABAT SUBYEKTI
SIFATIDAGI ROLI

Abduxalilov Shahboz Zafar o'g'li

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Bosh yuristkonsulti

shoh0098james@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tizes davlatning fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatida tadbirkorlar bilan teng munosabatda kirishi jarayonida yuzaga keladigan muammolarga nazariy hamda amaliy tomonidan yechimlar berish uchun shaxsiy fikrlardan iborat.

Kalit so'zlar: shartnoma, majburiyat, bitim,, ijrochi, yetkazib beruvchi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, Xo'jalik yurituvchi subyektlar.

Abstract: These essays consist of personal opinions to provide theoretical and practical solutions to the problems that arise in the process of entering the state as a participant in civil-legal relations on an equal footing with entrepreneurs.

Key words: contract, obligation, transaction, executor, supplier, civil-legal responsibility, Business entities.

Аннотация: Данные очерки состоят из личного мнения и призваны дать теоретическое и практическое решение проблем, возникающих в процессе вступления государства в качестве участника гражданско-правовых отношений на равных с предпринимателями.

Ключевые слова: договор, обязательство, сделка, исполнитель, поставщик, гражданско-правовая ответственность, субъекты хозяйствования.

Bugungi kunda davlat budgetini korrupsiyaviy omillardan himoya qilish har qachongidan ham muhim masala. Buning uchun monopol muhit yo'qotilishi hamda korrupsiyaviy omillardan qochilishga e'tibor qaratish lozim. Nima uchun undan oqilona foydalanish kerak? Chunki, davlat budgeti bu tunganmas manbaa emas. Uning ham miqdori hamda belgilangan maqsadlari mavjud. Bundan tashqari davlat mablag'lari shakllantirish asosini undiriladigan soliq hamda majburiy to'lovlar hisobidan shakllantiriladi. Oddiy tilda aytganda bu - xalqning pulidir. Har bir tashkilot o'z faoliyatini yurgizish davomida ma'lum ehtiyojlari mavjud bo'ladi. Davlat tashkilotlari ham xuddi shular jumlasidandir. Budget tashkilotlari ham o'z ehtiyojlari uchun shartnomaviy munosabatlarga kirishgan holda mahsulotlar xarid qilishi yoki xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishi mumkin. Bunda shartnomaviy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

munosabatda turli xil korrupsiyaviy omillarni oldini olishda uning raqobatli muhitda o'tishini ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki bozor iqtisodiyotining qoidalaridan biri - raqobatga asosan savdo muhitini yaratishdir. Buning uchun shunga imkon beradigan qonunchilikni tartibga solish zaruriyati mavjud. Shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish ham muhim faktorlardan biri. Bunda shartnomaviy munosabatga kirishayotgan davlat hamda tadbirkorlik subyekti o'rtasidagi masalalar ham bor edi. Chunki, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy roli hamda uning uzlusiz ravishda o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uni zarur tovar, ish hamda xizmatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu faoliyat yuridik adabiyotlarda hamda qonun hujjatlarida "davlat xaridi" atamasi bilan ishlatiladi. Davlat xaridlarini tashkil etish hamda uning natijasida tuziladigan shartnomalar O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi hamda Davlat xaridlari to'g'risida qonun bilan tartibga solinmoqda. Ushbu qonun bugungi holatiga 2021-yilda keltirilgan. Ungacha respublikamizda davlat xaridlarini tashkil etish tarqoq holda bir qancha qonun hamda qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi F-5464-sonli farmoyishida Iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bo'yicha o'tkazilgan tahlil Fuqarolik kodeksida, avvalambor, bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, xalqaro reytinglarda mamlakat o'rnnini yaxshilashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jiddiy kamchilik va bo'shliqlarni aniqlashga imkon berdi. Aynan shunday bo'shliqlar qayta ko'rib chiqilib 2021 yil 22 aprelda yangi tahrirda "Davlat xaridlari to'g'risda"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonundan ko'zlangan asosiy maqsad davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy omillarni yo'q qilish hamda raqobatli muhitni vujudga keltirishdan iborat. Ushbu qonunning qabul qilinishi davlat xaridlari sohasida xarid jarayonini yana ham mukammallashtirdi, shaffoflik, ochiq-oshkorlik bilan birga tadbirkorlik subyektlariga yangi imkoniyatlar ochdi. Ushbu qonunni amaliyatga tezroq joriy qilish hamda ishslash mexanizmlarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son qarori qabul qilinishi ham davlat xaridi bilan bog'liq munosabat respublikamiz iqtisodiyoti uchun qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Unda xaridni amalga oshirishning tartiblari va unda shaffoflik va ochiqlik ta'minlash masalasi bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berilgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

Davlat xaridini amalga oshirish davomida davlat buyurtmachisi xususiy tadbirkorlik subyekti bilan fuqarolik-huquqiy munosabatga kirishadi va ular o'rtaida teng shartnomaviy munosabat bo'ladi. Bunda faqatgina pul mablag'lari budjet hisobidan ajratiladi qolgan barchasi shartnomaviy qoidalar asosida bo'ladi. Shartnomalar shartlari buzilishi natijasida nafaqat tadbirkorlik subyekti, balki davlat ham teng ulushda javobgar bo'ladi.

Mohiyatan davlat xaridi ham oddiy xariddir. Chunki, uning natijasida har qanday yuridik shaxs foydalanishi zarur bo'lgan mahsulot yoki xizmatlar xarid qilinadi. U uchun alohida nazariya hamda tushunchalarning bo'lishi va uning alohida qonun bilan tartibga solinishi sababi, uning natijasida davlat budgeti talontaroj bo'lish imkoniyatining mavjudligi. Davlat budgeti summasi noo'rin yoki pul yuvish yo'li bilan o'zlashtirishlardan himoya zaruriyatidan kelib chiqadi. Rivojlangan bozor munosabatlari tizimida davlat nafaqat bosh islohotchi, balki tovarlar, ishlar, xizmatlarning yirik iste'molchisi ham hisoblanadi. Biroq bunda davlatning iste'molchiligi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lib, davlat tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish bilan birga, ularni taqsimlash va joylashtirishni ta'minlaydi. Shuningdek, davlatning iste'molchilik holati bilan bog'liq yana bir muhim holat xarid qilish tartibini davlatning o'zi tomonidan belgilanishidir.

Davlat xaridi jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uning har bir bosqichi qonunga aniq mos bo'lishi lozimligini nazoratda ushslash muhim. Sababi, qaysidir bosqichda yo'l qo'yilgan xato budget mablag'larining ortiqcha sarfiga yoki korrupsiyaviy xavfga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shartnama tuzish (yuridik kollyejlar uchun darslik) / Mualliflar jamoasi o.oqyulov, N.Imomov, Q.Mehmonov va boshqalar/ prof. O.Oqyulovning umumiy tahrir ostida. – Toshkent: TDYuU, 2019-yil.
2. Административное право Российской Федерации.Алехин А.П., Козлов Ю.М.
3. Общие вопросы теории административного договора.Демин А.В. С. 18.
4. Административные договоры // Административное право России. Бахрах Д.Н. М., 2002.
5. Гражданское право. Обязательственное право: учебник: в 4 т. / В.В. Витрянский, В.С. Ем, С.М. Корнеев и др.; под ред. Е.А. Суханова. 3-е изд., перераб. и доп. М.: Волтерс Клювер, 2008. Т. 3. С.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

6. Гражданское право: в 4 т. Том III. Обязательственное право. Общие положения об обязательствах и договорах. М.: Волтерс Клувер, 2007. С. 49–52 (автор главы – Е.А. Суханов)
7. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. o'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2012 .
8. Po'latov D.X., Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. o'quv qo'llanma. - T.: "Sano-standart", 2014-yil.
9. Sirojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi. - T.: "InfoCoM.uz". 2010-yil.
10. Qosimova G.a. G'aznachilik. o'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2013-yil.